



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**O'ZBEK TILIDA HALOLLIK TUSHUNCHASINING LEKSIK-
SEMANTIK IFODALANISHI**
**THE LEXICAL-SEMANTIC EXPRESSION OF THE CONCEPT OF
HONESTY IN THE UZBEK LANGUAGE**

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/YPOE4976

Bovmanova Bashorat To'ychi qizi

O'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti

bashoratbovmanova@mail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi yoritilgan. Ushbu tushuncha shakllanishiga xizmat qilgan o'zbek xalqining hayot falsafasi, diniy qadriyatlari, zamonaviy tafakkur tarzini o'zida aks ettiruvchi halol semantikali so'zlar tahlil qilingan va misollar bilan asoslangan.*

***Kalit so'zlar:** halollik, halollamoq, halola, haloli, halolxo'r, halollik vaksinasi, halollik ro'zasi*

***Annotation.** This article explores the lexical-semantic expression of the concept of honesty in the Uzbek language. It analyzes words with honest semantics that reflect the philosophy of life, religious values, and modern thinking style of the Uzbek people, which have contributed to the formation of the concept, and supports the analysis with examples.*

***Keywords:** honesty, to act honestly, halala, legitimate/lawful, an honest person, vaccine of honesty, fasting of honesty*

O'zbek tilidagi "halollik" tushunchasini tahlil qilar ekanmiz, ushbu tushunchaning murakkab ekanligini ta'kidlash lozim. Zero, mazkur tushuncha shakllanishida xalqimizning azaliy hayot falsafasi, diniy qadriyatlari, zamonaviy tafakkur tarzi uyg'unlashib ketgan.

Halollik tushunchasi murakkab semantikaga ega ekanligi uning pragmatik ma'nosining turli-tumanligi bilan ham bog'liq. Nutq jarayonida turli vaziyatlarda ushbu so'zning o'ziga xos ma'no qirralari ko'rinadi. Masalan, kim uchundir mehnat qilib topilgan rizq, kim uchundir pokiza, kim uchundir shar'iy mumkin bo'lgan narsalar halol bo'lishi mumkin.

Mavhum tushuncha hisoblangan abstrakt so'zlarning ma'no ko'lami til egalarining tafakkur tarziga bog'liq ekanligi ma'lum.

"Abstrakt so'zlardagi «ma'noning tebranish chegarasi» ham konkret so'zlarnikidan farqlidir. Denotativ so'zlardagi «ma'noning tebranish chegarasi» predmetlar sinfiga xos xususiyatlarga ega konkret predmetning belgilari asosida aniqlanadi. Ma'lumki, bu xususiyatlar nomning signifikativ ma'nosida aks etadi.



Masalan, qor so‘zining ma’noviy tebranish kengligi uning signifikatida aks etgan xususiyatlari asosida belgilanadi: oq rangli kristall shakldagi sovuq yog‘in. Lisoniy hamjamiyatdagi insonlar ongida qor so‘zining ma’nosi bir xil bo‘ladi. Ya’ni mazkur so‘zda ma’noviy tebranish aniq kuzatilmaydi. Denotatga ega bo‘lmagan nomlarning ma’noviy tebranishi ma’lum darajada ixtiyoriy bo‘lib, u lisoniy hamjamiyatda mazkur nom ifodalaydigan tushunchaning kengligi bilan belgilanadi. Masalan, denotatsiz hisoblangan muhabbat abstrakt nomining ma’noviy tebranish kengligi o‘zbek tili egalari ongida mazkur nom ifodalaydigan tushunchaning tebranish kengligi bilan chegaralanadi. Ya’ni ushbu so‘z “kimsaning kimsaga yoki biror bir narsaga qalbdan berilish, moyillik hissi”ni nomlaydi [O‘TIL, 2022: 775]. Har bir kishida mazkur hisning turlicha kechishi natijasida so‘z ma’nosining tebranishi kuzatiladi” [ХАКИМОВА, 2020: 89].

O‘zbek tilida “halollik” tushunchasini halol so‘zi va u bilan yasalgan *halollik, halollamoq, halola, haloli, halolxo‘r, oshihalol kabi, to‘g‘ri, to‘g‘rilik; pok, pokiza, pokizalik; iymonli, insofli, diyonatli, vafodor* kabi leksemalar; *jufti halol, luqmayi halol, lafzi halol* kabi iboralar, *ona sutidek halol* kabi o‘xshatishlar tashkil etadi.

Dastlab **halollik** so‘zi ifodalaydigan konseptlarga to‘xtalib o‘tamiz.

1. Halollik vijdon bilan, insof yuzasidan ish tutish tushunchasini ifodalaydi. Vijdon esa kishining o‘z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biridir [O‘TIL, 2022: 545]. Ushbu konsept halollik, diyonat, insof kabi so‘zlar bilan ham nomlanishi mumkin. Mazkur konseptaul tushuncha nutqda asosan nasriy matnlarda, shuningdek, rasmiy, publitsistik matnlarda ham ko‘p uchraydi. *Halollik, to‘g‘rilik, poklik — odamiylikning eng zaruriy mezonidir.* (Gazetadan)

Mehnat qilib umr kechirish ma’nosini beradi. Bunda ayyorliklarsiz, aldovlarsiz, o‘g‘riliksiz, qallobliklarsiz mehnat qilib rizq-ro‘z topish masalasi ko‘nladalang qo‘yilgan. Kimnidir aldab, ayyorlik qilib topilgan pul yoki rizq harom degan ziddiyat mavjud. Ushbu tushuncha quyidagi matnlarda raellashadi:

Men bunday intizomsizlikka chidab turolmayman, — boshliq tikmachokday mushti bilan stolni urdi, — men halollik bilan, vijdon bilan ishlaydigan odamni yaxshi ko‘raman. (Oybek, Nur qidirib)

Inson har bir ishni halollik ila qilsa uning oxiri xayrli bo‘lur, buning uchun esa har bir inson “halollik ro‘zasi”ni tutmog‘i lozim.

E’tibor qilinsa, ushbu matnda okkazonal ma’noni qo‘llash mavjud. Halollik ro‘zasi birikmasi noodatiy bog‘lanish bo‘lib, u haromdan tiyilish ma’nosini bermoqda.

2. Halol ekanlik. Shariat hukmlariga binoan halol bo‘lish holati. *Islom shariatida halollik muhim o‘rin tutib, u inson umri xotirjam, osoyishta va farovonlik bilan o‘tishiga garov, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.* (Sh.Ahmedov)

Ma’lumki, Islom dinida halol tushunchasi juda muhim ahamiyatga molik tushuncha. Dinimizda iste’mol qilish, qo‘llash, ishlatish mumkin qilingan narsalarga asoslanib yashash halollikdir.



3. Poraxo'rliksiz yashash ma'nosini beradi. Bu tushuncha avval halollikni ifodalovchi bosh ma'noning tarkibiy qismida mavjud bo'lib, so'nggi yillarda alohida konsept darajasiga aylana olgan. Bunga halollik so'zining yangicha birikmada qo'llash sabab bo'ldi: halollik vaksinasi. Ushbu qo'llash birinchi marta O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoev tomonidan qo'llandi va rasmiy, publitsistik nutqda faol ishlatilada boshladi.

Korrupsiyani hozirgi kungacha hech qanday jazo, hech qanday xavf oldini ololmagan. Buning yagona yo'li – "halollik vaksinasi". Ya'ni, halollik insonning ongu shuurida bo'lishi lozim. Uni esa paydo qilish kerak bo'ladi. Ochko'zlikni, yebto'yamaslikni faqat ma'rifat bilan yengish mumkin. Millatning yuzlab yillar davomida yig'gan bilimi, tajribasi, ma'naviy qadriyatlari, albatta, "halollik vaksinasi"ni paydo qilish uchun yetarli bo'ladi.

"Halollik" tushunchasi semantik maydonining yadrosidan *halol* leksemasi o'rin oladi. O'zbek tilida *halol* leksemasi quyidagi tushunchalarni ifodalaydi.

Halol. 1. Shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo'ladigan; harom emas. Ushbu ma'no quyidagi kabi kontekstlarda reallashgan:

Pulni olmadim, ming marta roziman, sizga ona sutiday halol bo'lsin. (A. Qahhor).

Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich. (Maqol).

«Halol» standartlari mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish, sotish va markirovka qilish jarayonlariga Islom qonunlariga binoan talablarni belgilaydi. (Gazetadan)

2. Kishining o'ziga qarashli, o'z mehnati bilan, peshona teri to'kib topilgan; xiyonat, g'irromlik kabilardan xoli. Mazkur ma'no aks etgan matnlar:

Jondilidan halol ishlaydigan odamlar bilan inoq.. (R. Fayziy).

To'g'ri tut ishingni va halol yasha! (Shuhrat).

Mahfuza endi qing'irlikni tashlar, bolalarini halol pul bilan boqib, voyaga yetkazar.. (Gazetadan).

3. G'irromlikka o'rganmagan, qing'ir yo'lga bormaydigan, birovni aldamaydigan; to'g'ri, sofdil. *Halol kishi.*

Kolxoz raisi umri yetimlik bilan o'tgan halol odam. (Sh. Rashidov). *Bechora Oqila o'zi juda halol, mehnatkash, bolalarga juda mehribon ayol.* (A. Qahhor) . *Azaliy xalqing bor bir el qatori, Tantiyu mehnatkash, to'g'riso'z, halol.* (A. Oripov).

4. Nikohlab olingan, qonuniy (xotin haqida). *Birovning halolini birov suyardigan zamon ekan-da, vodarig'?* (S. Siyoev). *O'zining bir emas, ikkita xotini bo'la turib, tag'in bir yigitning haloliga ko'z olaytirish.* (A. Qodiriy)

5. Foizsiz, sudxo'rliksiz. Masalaga mantiqan qaraganda ham islom dini nuqtayi nazaridan ta'qiqlangan – ribo, ya'ni foizga olingan kredit hisobidan ishlab chiqilgan mahsulotni to'laqonli "HALOL" deyish to'g'ri emas. Shunday paytlarda islom bank-moliya tizimining moliyaviy mahsulotlari tadbirkorlarga qo'l kelishi shubhasiz. (Gazetadan)



6. O'zbek kurashida sof g'alabaga beriladigan baho. *Davlatimizning bevosita ko'lab-quvvatlashi natijasida kurash xalqaro sport turi sifatida keng e'tirof etildi, «kurash», «halol», «ta'zim», «to'xta» va «yonbosh» kabi atamalar esa xalqaro sport lug'ati tarkibidan mustahkam o'rin egalladi.*

HALOLA. Mazkur so'z bugungi kunda keng qo'llanmaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida ikkita ma'nosi berilgan:

1. Eriga xiyonat qilmaydigan, halol xotin.

2 Nikohlab olingan, qonuniy xotin.

Lekin islom ilmida halola termini mavjud bo'lib, u quyidagi kabi ma'noni anglatadi:

Shar'iy halolaning ko'rinishi. Shar'iy halolaning yo'li va joiz tariqasi shuki, uch taloq qo'yilgan ayol idda o'tirganidan keyin o'zining roziligiga binoan biror kishiga nikohlanib, u bilan birga yashaydilar. Keyinchalik biror mojaro yoki kelishmovchilik sababli er-xotin o'rtasida janjal chiqib, ikkinchi er ham ayolga taloq qo'ysa yoki ikkinchi er vafot etsa, taloq yoki vafot iddasidan keyin ayol avvalgi eriga halol bo'ladi. Endi ikkalalari qaytadan nikohlanishlari mumkin bo'ladi.(Zikr ahlidan so'rang)

HALOLLAMOQ. Biror narsani oqlash, unga arziydigan, munosib bo'lgan ish qilmoq [O'TIL, 2022: 527]. *Nonni halollab yeyish kerak.*(N.Safarov). *Urushda ham o'g'lim sutimni halollabdi. Bolalarimdan roziman.* (N.Safarov).

Halollamoq so'zining boshqa ma'nolari borki, ular izohli lug'atga kiritilmagan. Masalan, chorva mollariga bo'ri tegdi. Agar u o'lsa, harom ketadi. Shuning uchun joni chiqmasdan so'yib yuborilsa, halollangan bo'ladi. Og'zaki nutqda bunday vaziyatlarda halollab olmoq birikmasi qo'llanadi. Yoki idishni, kiyimni, quduqdagi suvni halollab olish kabi tushunchalar bor. Masalan, quduqqa chumchuq tushib ketgan bo'lsa, 20 chelak suv olib tashlash bilan halollab olinadi.

Umuman olganda, halollik va u bilan bog'liq barcha tushunchalar o'zbek millati uchun ajralmas va muhim qadriyat darajasida ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Ижтимоий одоблар. –Тошкент: Hilol nashr, 2012.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
3. Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2019. – 180 б.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. https: newtone
6. https://ru.wikipedia.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri: sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774